



JAHANNAMDAN QOCHGAN AYOL

¹ Usanova Qadema Muratbay qizi, ² Xushanov Alisher Oydin o'g'li

¹ Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227534>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

Illat, yurt, , xalq, Suriya, Rossiya, Turkiya, musulmonlik, jihod, shahidlik.

ABSTRACT

Mazkur maqola bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri – terrorizm va uning xatarli oqibatlariga bag'ishlangan. "Jahannamdan qochgan ayol" hikoyasida bosh qahramonning boshidan o'tkazganlari haqida fikr yuritiladi.

Vatan – muqaddas dargoh, mo'jizali maskanlari bilan yurakka jo bo'lgan, har qarish yeri-yu, kaftdek tuprog'i zar, ko'zga gavhardir. Vatan azaldan muqaddas sanalgan. Suvidan to giyohiga qadar begona ko'zlardan himoya qilingan. Demak, bu yurt uchun har bir farzand jon kuydirmog'i, kelajagi uchun oz bo'lsa-da naif tegadigan bo'lib yashamog'i lozim. Samimiy insonga har qanday inson inson do'st bo'lishga talpinganidek, iymoni but farzandi bo'lmog'i uchun ham Vatan – ona kabi intilaveradi, o'sha insonni asrab avaylaydi. Ammo bilib bilmay sarobga aldanib, muqaddas dinimizni niqob qilib olgan xoinlar qutgusiga uchib, Vatanga xiyonat qilgan kimsalar ham yo'q emas.

Mustaqillik yillarida barcha qadriyatlarimiz qatori muqaddas dinimiz ham xalqimiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Yurtimiz musulmonlari o'z ibodatini eminerkin ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berila boshladi. Masjid va madrasalar qurilib, unga keladigan odamlar soni tobora ortib bordi. Lekin tangananing ikki

tarafi bo'lganidek, dinni niqob qilib olgan toifalar jamiyat o'rtasida buzg'unchilik, nohaq qon to'kish insonlarning miyyasiga hatto dinga umuman to'g'ri kelmaydigan fikrlarni singdirib, ularni jihod qilishga, shaxid bo'lishga undashgan.

Sarobga aldanganlar qismati – bu kitobni o'qir ekanman, ora-orada meni qo'rqinch, achinish, alam va o'zimga tanish bo'lmagan g'alati tuyg'ular qamrab olardi. Bu kitobdagi meni larzaga solgan hikoya "Jahannamdan qochgan ayol" hikoyasi bo'ldi. Bu hikoyaning asosiy qahramoni – Malohat, yoshi o'rta yoshlarga borib qolgan oilali ayol, asli kasbi tikuvchi, yashab turgan yaxshigina sharoitiga noshukurlik qilib, eriga ko'p nola qiladigan bo'ldi. Oxiri eri Malohatga do'kon ochib berdi. Aslida hamma balo shundan boshlanadi. Do'kon ochganidan keyin ko'pgina dugonalar orttirdi, kafe-restoranlarga boradigan, internetda ko'p vaqt o'tkazadigan bo'ldi. O'zicha: "Hayotda qanday qilib yashash kerakligini bildim", - deb o'yladi. Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin eri bilan



urushib Toshkentga borib yashay boshladi, ishga joylashdi. Internetdan yaxshi foydalanib o'rganib qolganligi uchun, Shavqiddin ismli yigit bilan tanishadi. Vaqtlar o'tib, Shavqiddinni taklifi bilan Malohat Rossiyaga ketadi. Borganda Malohatni Shavqiddinning o'zi kutib oladi. Shavqiddin bo'y- basti kelishgan chiroyli yigit edi. Malohat uni ko'rib, yanada ko'proq sevib qoladi. Shavqiddin bilan shariy nigohdan o'tib, birga yashay boshlaydi. Shavqiddin boshida zamonaviy odam bo'lib ko'ringani bilan dinni niqob qilib olgan oqimga kirgan kimsa edi. Malohatga ham ko'chada chiqqanida o'rab yurishini aytadi. Kunlardan bir kuni Shavqiddin Malohatga Turkiyaga ketishlari kerakligi, Turkiyada ham ko'p qolmasigi, jihod qilgani Suriyaga ketishlari haqida aytadi. Malohat boshida to'sqinlik qiladi, Shavqiddinning qo'rqitishlaridan keyin u ham Turkiyaga ketadi. Suriyaga borgandan keyin Malohat Suriyadagi sharoitlarga ko'nika olmay, uzoq vaqtgacha qiynaladi. Ular yashab turgan qishloqda jihod qilishga kelgan O'zbekistonliklar ham bor edi. Malohat or-orada qo'shnilarnikiga chiqib turardi. Qo'shnilari tashqarida bo'layotgan o'q ovozlari qo'rqmasdi, xuddi radiodan eshitayotgandek e'tibor ham bermasdi. Qo'shni ayollar bilan o'tirganda din, jihod haqida ko'p gaplashishar, jihod yo'lida shaxid bo'lish esa sharaf hisoblanardi. Malohat esa qo'shnilarining gaplariga qo'shilmadan, bu noto'g'ri yo'l ekanliklarini aytardi. Qo'shnilari esa bu gapni boshqa aytmaligi, agar tashqarida kimdir eshitib qolsa otib tashlashlarini uqtirardi. Oxir oqibat Malohat qanday qilib bo'lmasin bu yerdan ketish kerakligini ko'p o'ylaydigan bo'ldi. Har taraflama choralar qidirardi. Shavqiddinga bu yo'l to'g'ri emasligini har qancha aytsa ham har doim

rad javobini olardi. Malohat endi boshqacha yo'l tuta boshlaydi. Ayol kishida mehr va makr bo'ladi. Qaysi birini olish esa erkak kishining o'ziga bog'liq. Shavqiddindan sovib qolgan ko'nglini xuddi uni sevadigandek ko'rsatib, uning ishonchiga kiradi. Eri kelganda uni yaxshi kayfiyatda kutib olib, shirin ovqatlar pishirib qo'yadigan bo'ldi. Shavqiddin ham bu holatlardan quvonar, Malohatning ham bu hayotga ko'nikib qolganidan xusand edi. Malohat Turkiyadagi qarindoshlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda gaplashib, ularga bitta kampirga qarayotgani, arzimagan ishlari uchun katta miqdorda maosh olayotgani haqida, agar ishlayman desa ularga ham shunday ish topib berishi haqida aytadi. Qarindoshlari rozi bo'lgandan keyin Shavqiddinga ular bilan yozishmalarini ko'rsatib, Turkiyaga borib ularni olib kelishini aytadi. Shavqiddinni yordami bilan Suriya chegarasidan yashirin yo'llar bilan chiqib, Turkiyaga yetib borib opasidan, undan keyin eridan pul jo'natishini so'raydi. Bir amallab o'z ona yurtiga yetib keladi va eridan kechirim so'rab farzandlarini berishini, endi unga loyiq emasligini, aytib yolvoradi. Lekin eri kechirmaydi, farzandlarini ham bermaydi. Malohat noiloj holda uyidan chiqib, o'z aybiga iqrar bo'lish uchun ichki ishlar organlariga boradi. Bu hikoyani o'qir ekanman, hayot yo'llarida sabrli bo'lishni, noshukurlik qilmaslikni, begona odamlarga ishonmaslikni, tashqi ko'rinishi chiroyli bo'gan har qanday odam ham yaxshi odam bo'lavermisligini tushundim. "Xalqimiz "Eski chopon ostida noyob qalb egasi bo'lishi mumkin", -deb bejiz aytishmagan ekan.

Ogohlik – davr talabi. Ogohlik – kishining o'z umriga, taqdiriga shohlik bilan barobar. Zero, bugunimiz har birimizdan ana shunday ogohlikni talab etadi. Ayniqsa,



turli illatlar urchigan zamonimizda bu nihoyatda muhim. Biz nafaqat jismoniy tomondan, balki, ma'naviy tomondan ham ogoh va hushyor bo'lishimiz, ayniqsa, biz yoshlar, xalqimizni ogohlikka va hushyorlikka chorlashimiz zarur. Ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi orgaznizmida unga qarshi immunitet hosil qiladilar. Biz ham ona-Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, ularning qalbida va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur.

Tinchlik – bebaxo ne'mat. Bugungi kunda tinchlikni asrash, turli qo'poruvchilik harakatidagi ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishni oldini olish, muqaddas dinimizni soxtalari bilan aralashtirmasligimiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, bu hikoyada aldanib qolgan bosh qahramon

Malohat shu darajada qiynalganki, hatto, o'z yurtida qamoqda o'tishga ham rozi bo'lib, o'z aybiga iqror bo'lish uchun ichki ishlar ishlar organlariga boradi. Balki, noshukrlik qilmaganida, o'z vatanida ishlaganida bu voqealar bo'lmasdi, o'z bolalarini bag'riga bosib, oz uyida tich yashayveradi. Albatta, bu hikoyada Malohatni qoralab tashlashga ham bo'lmaydi. Chunki hechkim oldida nima bo'lishini bilmaydi. Bilganida albatta bunday ishlarga qo'l urmasdi, begona yigitga ishonib, u uchun chet davlatga bormasdi. Bu albatta ma'naviy tarbiyaning kamligi yoki oddiy o'zbek ayolining soddaligi. Nima bo'lganda ham bu ham bir sinov, sinovdan qanday o'tish esa insonning o'ziga bog'liq. Bu to'plamni o'qigan har bir kitobxonga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Bunday noto'g'ri yo'ldan yurmaslikni, noshukrlik qilmaslikni o'rgatadi.

References:

1. "Sarobga aldanganlar qismati", "ZAMON-PRESS-INFO NASHRIYOT UYI" Toshkent -2017.
2. <http://elibrary.namdu.uz/84%20Badiy%20adabyot%20asarlar/Sarobga%20aldanganlar%20qismati>
3. <https://kun.uz/uz/news/2017/05/01/sarobga-aldanganlar-kismati-toskentda-angi-kitob-takdimoti-bulib-utdi>